

5-soni shartnoma
«Iste'molchi»larga ichimlik va oqova suvi xizmatlarini ko'rsatish uchun

«27» Yanvar 2022 yil

Ushbu shartnoma «Surxondaryo suvta'minoti » MChJ Qumqo'rg'on tuman bo'limi , keyingi o'rinnlarda «Ta'minotchi» deb yuritiladi. Nizom asosida 2022 yil 5 yanvar kundagi 1-sonli ishocchnoma asosida faoliyat yurituvchi 1.Xursanov shaxsida , bir tomonidan va keyingi o'rinnlarda « Iste'molchi» deb yuritiluvchi Qumqo'rg'on tuman tibbiyot birlashmasi nizom asesida ish olib boruvchi paxbar R.X.Qo'yiliyev ikkinchi tomondan, quydigilar haqida tuzildi:

I.Shartnoma predmeti

1.1. 2022 yil uchun suv yetkazish hajmi uchun tuzilgan shartnomaga muvofiq yuridik tashkilotlari (bundan buyon matnda II guruh «Iste'molchi» lari deb yuritiladi) uchun suv yetkazish 3155 narx bo'yicha 3328 m3ni; 1m³ ichimlik suv uchun 3105 so'm (+QQS 15%), + 50 so'm (maxsus ustama xaq)ni; 1 m³ oqova suv uchun 1207,50 so'm (+QQS 15%), + 50 so'm (maxsus ustama xaq)ni tashkil qilmoqda.

Shu taripa shartnomaning umumiy qiyamati 10.499.997 (0'n million to'rt yuz to'qqosn to'qqiz ming to'qqiz yuz to'qqosn yetti) so'mni tashkil qildi. Shu jumladan, byudjet mablag'lardan 10499997 so'm, byudjetdan tashqari mablag'lardan 0 so'm byudjetdan tashqari mablag'lardan to'lanishi ko'zda tutilgan.

II guruh iste'molchilari Qoidalardagi belgilangan turda «Ta'minotchi» tomonidan taqdirm qilingan hisobvaraqt-fakturlarga asosan, Moliya vazirligi G'aznachiligi orqali suv ta'minoti va oqova suvini chiqarish uchun o'tkazilgan mablag'lari orqali amalga oshiriladi.

1.2. «Ta'minotchi» «Iste'molchi»ni sifatlari ichimlik suv bilan ta'minlash va «Iste'molchi»dan oqova suvlarni qabul qilib olish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.3. «Iste'molchi» «Ta'minotchi»ga ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun to'lovlarini xar' oyning 10 sanasigacha 100 foizlik oldindan haq to'lash tarqasida amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.4. Taraflar ushbu shartnomaning ichimlik va oqova suv xizmatlari bo'yicha shartlarini bajarish, O'zbekiston Respublikasining qonunchilikligi talablariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyulndagi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish Qoidalari»ga (keyinchalik matnda – Qoidalalar deb yuritiladi), hamda mahalliy hokimiyyat tomonidan tasdiqlanadigan maxsus ustama haqi 1m³ ichimlik suv uchun 3155 so'm, 1m³ oqova suv xizmati uchun 1257,50 so'm bilan buga «Ta'minotchi» tomonidan taqdirm qilingan ichimlik va oqova suv tiziniga ularish uchun ruxsat etuvchi hujjalarga roya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladar.

II. Umumiy qoidalar

2.1. «Iste'molchi» «Ta'minotchi» tashkiloti ruxsat bilan va u texnik imkoniyatlari mavjud deb topgan holatlarda, o'z tasarrufidagi ichimlik va oqova suv tarimoqlariga, inshoot va qurilmalarga subiste'molchilarning ulanishiha ruxsat berish huquqiga ega.

2.2. «Iste'molchi» bilan subiste'molchi o'rtaida to'lov masalalarida paydo bo'ladigan nizolar «Ta'minotchi» tashkiloti tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

2.3. Agar «Iste'molchi» va unga ulangan subiste'molchi turli guruh va toifali iste'molchilariha mansub bo'lsa, «Ta'minotchi» tashkiloti bilan shartnomani «Iste'molchi» ham subiste'molchi ham tuzadi va suvni hisobga olish priborini o'rnatish har ikkalasi uchun ham majburiyt hisoblanadi.

2.4. Ichimlik suvdan dov-daraxtlarni sug'orish uchun foydalamlisiga quydagi istisno holatlarda yo'll qo'yiladi: irrigatsiya suvi bo'lmaganda, ta'minotchi tashkiloti quvvati mavjud bo'lganda va mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan tasdiqlangan jadval bo'yicha, faqat tungi vaqtida (soat 00-00 dan soat 05-00 gacha) yo'll qo'yiladi.

2.5. Ichimlik va oqova suv xizmatidan iste'molchi xo'jalik-iste'mol, maishiy elchijoj va yong'inlarni o'chirish xamida texnologik va ishlab chiqarish jarayonlari uchun foydalamladi.

2.6. Suvni hisobga olish priborlari O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan tekshirilib plombalanadi, hamda «Ta'minotchi» tomonidan plombalanishi lozim. Shuningdek, ichimlik suvini hisobga olish priborini yechish, qiyoslashdan o'tkazish va o'matish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

2.7. «Iste'molchi»ga o'natalishi lozim bo'lgan suv o'chashni priborining shartli o'tkazgichining diametri (kalibri) hisob-kitob asosida aniqlanadi, ob'ektning maksimal suv iste'moli ya minimal suv iste'moliga tekshiriladi hamda «Iste'molchi» bilan kelishiladi. Hisoblash pribori uchun o'matilgan minimal iste'mol miqdorida kam miqdorda suv iste'mol qilinganda, «Ta'minotchi» xodimi suv o'chash tarmog'ini qaytadan qurilma bilan ta'minlash uchun ko'rsatma beradi, ushbu ko'rsatma bajarilmaganda, hisoblash priborining ko'sratikchilari qabul qilinmaydi va hisoblash Qoidalarda o'matilgan tartibda amalga oshiriladi.

2.8. Ichimlik va oqova suv xizmatlari xo'jaligining rekonstruktsiyasi, hisoblash priborlarini ishga tushirish, hisoblash priborlarini almashtirish, yangi subiste'molchilarning ulanishi «Iste'molchi» tomonidan faqat «Ta'minotchi» tarafidan tasdiqlangan texnik shartlar va loyiha asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ular «Iste'molchi»ning so'rovnomasi asosida, barcha tasdiqlovchi hujjalarni ilova qilgan holda beriladi. «Ta'minotchi»dan olingan texnik shartlar asosida, «Iste'molchi» buyurtmasiga asosan, amaldagi me'yor, qoidalara va boshqa me'yoriy hujjalarni asosida ishlab chiqiladi.

2.9. Qurilgan ulamalarning ishga tushirilishi «Ta'minotchi» tomonidan, «Iste'molchi» va qurilish tashkiloti vakillarining ishtirokida amalga oshiriladi.

2.10. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun tariflar va ustama haq miqdori o'zgargan sanasidan qar'i nazar, ushbu xizmatlar yuzasidan «Iste'molchi» bilan tuzilgan shartnoma o'z kuchini saqlab qoladi va «Iste'molchi» ko'rsatilgan xizmatlar uchun, yangi tariflar asosida, ular kritilgan sanadan e'tiboran to'lovlarini amalga oshirishi shart.

2.11. Quydigilar «Ta'minotchi» tashkilotlari bilan «Iste'molchi»lar shu jumladan, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarini o'tasidagi, ichimlik va oqova suv xizmatlari tarmoqlari, inshootlari xamda qurilmalanga xizmat ko'rsatish, ularning texnik holatini saqlash va foydalansh yuzasidan javobgarlik chegaralari hisoblanadi:

a) ichimlik suv iste'moli uchun — tarmoqqa ularishini uzib qo'yuvchi kirish qulsi. Kirish qulsi bilan ichimlik suvga ularish, «Iste'molchi»ning ichki ichimlik suvi tizimining bir qismi hisoblanadi;

b) oqova xizmati uchun — «Iste'molchi» oqova tizimining ichki qismi hisoblanuvchi, magistral oqova tarmog'iga ularish nuqtasidagi chiqaruv qudug'i. Agar chiqaruvchi oqova qudug'i (kamerasi) magistral oqova tarmog'ida joylashgan bo'lsa, ushbu qudug «Ta'minotchi» tashkiloti oqova tarmog'ining bir qismi hisoblananib, unga tutashtiruvchi foydalansh chizig'i esa «Iste'molchi»ning mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

III. Taraflarning huquq va majburiyatlari

3.1. «Iste'molchi» ning huquqlari:

3.1.1. Tegishli sifat darajasidagi ichimlik suv va oqova suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish talablarini bajarmaganligi uchun «Ta'minotchi» tashkilotidan qonunchilikda va shartnoma shartlarida ko'rsatilgan miqdorda jarima (penya)lar to'lashni talab qilish;

3.1.2. «Ta'minotchi» tashkilotini shartnomani bekor qilish to'g'risida, uning bekor qilinishidan kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda va ushbu muddatda suv ta'minoti yoki oqova suvni chiqarish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarini to'liq amalga oshirgan holda shartnomani bir tomonlana bekor qilish;

3.1.3. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarining yo'qligi haqidagi ma'lumotlari shaxsan yoki o'z vakili orqali bepul olish;

3.1.4. «Ta'minotchi» tashkilotidan ichimlik va oqova suv xizmatlari hajni va sifati, ularni amalga oshirish shartlari, to'lovlar tarifi va tartiblarining o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni bepul olish;

3.1.5. Ichimlik va oqova suv xizmatlari ko'rsatilmayotganligi yoki ularning past sifatda ekanligi to'g'risidagi dalolatnomasi taqdirm etilgandau keyin 18 soat mobaynida «Ta'minotchi» tashkilotidan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ma'lumotlarni olish;

3.2. «Iste'molchi» ning majburiyatlari:

3.2.1. Oqava tarmog'ida avariya bo'lgan taqdirda yerto'la xonalarini suv bosishidan saqlaydigan barcha o'chiruvchi qurilmalarning but saqlanganligi, ishga yaroqliligi va normal texnik holatda bo'lishini ta'minlash;

3.2.2. Iste'molchiga qarashli sanitariya asboblari, oqava tarmoqlari, inshoot va qurilmalarda tambaran yо'qligi, reviziyalarning zieg yopilmasligi, nosoz texnik holati tufayli iste'molchiga oqava tarmoqlarida yoki «Ta'minotchi» tashkilotida, ichimlik suv va oqovaning tashqi tarmoqlarida avariya (tiqilib qolish, suv bosish) sodir bo'lishi sababi yerto'la xonalarini suv bosishi oqibatiga yetkazilgan zararni qoplashi;

3.2.3. «Ta'minotchi» tashkiloti bilan hisob-kitob qilish uchun foydalilanigan suv hisobga olish pribori, aylanma liniya zulfini, yong'in zulfinlari, gidrantlar va uning hududida yoki tasarrufida bo'lgan hamda «Ta'minotchi» tashkiloti tomonidan plombalangan boshqa ichimlik suv qurilmalardagi plombalarning butligi va saqlash;

3.2.4. «Ta'minotchi» tashkilotiga ichimlik va oqova suv tarmoqlari, inshootlari va qurilmalarning shikastlanishi tufayli yetkazilgan zarar uchun qonunchilikda belgilangan tartibha javobgarlik;

КУРИД ЧИКИЛАН ЮРИСТ: ХОРИЕВ САМАД XXX. ХУЖЖАТ РАКАМИ: WF0365454832

3.2.5. Ichimlik suvi ta'minotining yong'inga qarshi tizimidan foydalanish to'xtatilganda «Iste'molchi» 24 saat mobaynida «Ta'minotchi» tashkilotiga plomba uzilgani to'g'risida dalolatnomaga taqdim etishi va zulfinlarni plombalash uchun «Ta'minotchi» tashkiloti vakilini chaqirish;

3.2.6. «Ta'minotchi» bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq majburiyatlariga rioya qilish, har oyning 23 dan 25 gacha sanasida ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va aniq yechib olish hamda ushbu ko'rsatkichlarni «Ta'minotchi»ga kechikmagan holda taqdim qilish va to'lovni amalga oshirish.

3.3. «Ta'minotchi» ning huquqlari:

- 3.3.1. «Ta'minotchi» tashkiloti, iste'molchini 7 kun avval yozma ravishda ogohlantirgan holda, quyidagi holatlarda suvni uzatish va oqova suvlarni qabul qilishni to'liq va qisman to'xtatish mumkin;
- a) «Iste'molchi»ga tegishli va uning tasarrufida bo'lgan ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilma va inshootlarning texnik holati qoniqsarsiz bo'lganda va «Ta'minotchi» tashkiloti vakillari tomonidan aniqlangan texnik foydalanishdagi xatoliklarni bartaraf etish bo'yicha «Ta'minotchi» tashkiloti talablarini iste'molchi tomonidan bajarilmaganda;
- b) «Ta'minotchi» tashkilot mansabdor shaxsi iste'molchining suvni hisobga olish uzel, ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilmlari va inshootlarni nazorat qilish hamda suvni hisobga olish pribori ko'rsatkichlarni qayd etish, plombalarini o'matish maqsadida ko'zdan kechirish, belgilangan limitdan ko'p sarf qilinganda suv berishni muvoifiqlashtirish va «Ta'minotchi» tashkiloti naryadlari bo'yicha boshqa ishlarni bajarish uchun keganda iste'molchi tomonidan asossiz ravishda kiritilmaganda;
- v) «Ta'minotchi» tashkiloti ulangan ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilmalarida rejali-ogohlantirish tarzida ta'mirlash hamda xizmat ko'rsatish ishlarni o'tkazilganda, shuningdek, yangi iste'molchilarini ularash ishlarni amalga oslirilganda;
- g) «Iste'molchi» tasarrufida bo'lgan ichimlik va oqova suv tizimlari yoki tarmoqlariga subabonentlarning o'zboshimchalik bilan ulanganani aniqlanganda;
- d) «Iste'molchi» tomonidan ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun belgilangan muddatlarida haq to'lanmaganda;
- ye) «Iste'molchi»ning tasarrufida bo'lgan ichimlik va oqova suv tarmoqlariga, qurilmalariga «Ta'minotchi» tashkilotidan ularish uchun belgilangan tartibda ruxsatnomaga oлган subabonentlarning tegishli tartibda ularishi rad etilganda;
- yo) «Iste'molchi» tomonidan shartnomaga xartlariga bajarilmaganda va u oqizilayotgan oqova suvlari miqdori va tarkibi bo'yicha xartlarga rioya qilinmaganda.
- 3.3.9. «Ta'minotchi» tashkiloti quyidagi holatlarda oldindan xabar qilmasdan suv uzatishni to'liq yoki qisman to'xtatishga haqlid;
- a) «Ta'minotchi» tashkilotining elektr ta'minoti to'xtatilganda;
- b) Tabiiy ofstalar ro'y berganda; v) Avariya holatlarda; g) Yong'in chiqqan joylarga suv uzatishni ko'paytirishga zarurat tug'ilganda.

3.4. «Ta'minotchi»ning majburiyatlar:

- 3.4.1. Suv ta'minoti va oqova suvni chiqarib yuborish yuzasidan shartnomaga xartlarini bajarish;
- 3.4.2. Ichimlik va oqova suv tarmoqlarining texnik holatini muntazam ravishda nazorat qilip borish;
- 3.4.3. Tarmoqdagagi ichimlik suv sisfati monitoringini olib borish;
- 3.4.4. Iste'molchilarining ichimlik va oqova suv tizimlariga ulangan ichimlik suv va oqava tarmoqlari, inshootlari hamda qurilmalarining holatini va ularidan foydalanishini muntazam ravishda nazorat qilip borish, ularidan samarali foydalanishni taskillshturishda iste'molchilariga amaliy yordam ko'rsatish;
- 3.4.5. Iste'molchilar tomonidan suvni behuda sarfining olidini olish, sanoat korxonalarini va ularga tenglashtirilgan korxonalarida suv berish bo'yicha belgilangan limitlarga rioya qilinayotganini muntazam ravishda nazorat qilish;
- 3.4.6. Suv iste'moli belgilangan me'yor (limit)lardan ortib ketgan holatlarda «Ta'minotchi» tashkilotlariga belgilangan tariflarga nisbatan ortiniluvchi 10,0 koefitsiyentini qo'llash;
- 3.4.7. Oqova suv tizimiga oqizilayotgan oqovalanining sisfati monitoringini ta'nnulash;
- 3.4.8. Shartnomaga xartlariga muvofiq o'z majburiyatlarini bajara olmagan holatlarda iste'molchiga penya hisoblash;
- 3.4.9. Iste'molchilarining shartlariga rioya etishmagani masalasi bo'yicha sud organlariga murojaat qilish;
- 3.4.10. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun amalga oslirilgan to'lovlarining holati, qarzlarining yo'qligi haqidagi ma'lumotlarni iste'molchilarga bepul taqdim etish;
- 3.4.11. Ichimlik va oqova suv xizmatlari tariflaridagi o'zgarishlar haqida ular amalda joriy qilinishidan 15 kun avval ommaviy axborot vositalari yordanida iste'molchilarini xabardor qilish;
- 3.4.12. Ichimlik va oqova suv xizmatlarini ko'rsatishda ro'y berishi mumkin bo'lgan rejali to'xtatish va uziishishlar haqida iste'molchilar uziishishlar boshlangungacha 10 ish kunidan kechikmay ogoohlantirish.

IV. Taraflarning javobgarligi

- 4.1. «Ta'minotchi» ushbu shartnomaga muvofiq majburiyatlarini bajarmaslikda yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda kelib chiqqan zararni, «Iste'molchi» esa yetkazilgan haqiqiy zarar o'rnnini qoplashi shart.
- 4.2. «Iste'molchi» quyidagi uchun javobgardir:
- a) Ichimlik suvni hisobga olish pribori plombalarini butligi, aylanish chizig'i jo'mragi, gider va boshqa suv uzatish moslamalaridagi qismalarining hududidi va tasarrufida bo'lgan plombalangan hisoblash qurilmalarining butun saqlanishi uchun;
- b) Suv tarmoqlariga o'z boshimcha ularni olish, sovuq suvni hisobga olish qurilmalarining qasddan buzilishiga yo'l qo'yish hamda suv hisoblash priborlaridagi ko'rsatkichlarni tashqaridan aralashgan holatlari uchun;
- v) O'zboshimchalik bilan qurilgan inshootlar sababli tarmoqlardagi avariylar bo'lgan holatlarda;
- g) Drenaj uzmi mayjud bo'sha «Iste'molchi» hududida joylashgan oqova tarmog'i yomg'ir va erigan qor suvlarning tushishiga yo'l qo'ymaslik. Ushbu qoidabuzarlik aniqlanganda «Ta'minotchi» ornatilgan tartibda dalolatnomaga tuzadi va ushbu dalolatnomaga «Iste'molchi»ning mas'uliyat va javobgarlik chorasini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qildi;
- d) Qonunchilikda ornatilgan boshqa bollarda.
- 4.3. «Ta'minotchi» quyidagi hollarda javobgardir:
- a) Amldagi me'yoriy-huquqiy hujjalarning talablariga muvofiq va qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa hollarda;
- b) «Iste'molchi»ning ichimlik va oqova suv xizmatlaridan foydalanish uchun ziarat bo'lgan texnik xartlarni o'z vaqtida va ishonchli taqdim qilinishi uchun;
- v) «Iste'molchi»ning hayoti, salomatligi va mol-mulkiga yetkazilgan zarar, ma'nnaviy zarar uchun qonunchilikda ornatilgan tartib va niqdorda qoplash;
- g) Shartnomaga xartlari va yuklatilgan majburiyatlarini bajarmaslik.

V. Suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun hisoblar va to'lovlarining tartibi

- 5.1. Ichimlik va oqova suv ta'minoti tizimidan chiqarilgan (qabul qilingan) suvning hisobi hisoblash pribori mavjud bo'lganda, hisobga olish priborining ko'rsatkichlari muvofiq amaldagi tariflar bo'yicha QSNi hisobga oligaq holda amalga osdiriladi.
- 5.2. «Iste'molchi» ichimlik va oqova suv xizmati uchun hisobga olish priborlari mavjud bo'lganda oxirgi uch oyning o'rtacha sarfi bo'yicha keyingi oy uchun har oyning 10-sanasiga qadar 100 foiz oldindan haq to'lashni amalga osdirishlari lozim.
- 5.3. To'lovning shartnomada belgilanganidan kechiktirilgan lar bir kuni uchun iste'molchi 0,4 foiz penya to'laydi. Ammo bu ko'rsatkich jami kechiktirilgan summaning 50 foizidan oshmasligi lozim.
- 5.4. «Iste'molchi» keyingi oy uchun har oyning 10-sanasiga qadar 100 foiz oldindan haq to'lovlarini amalga osdirmasalar, iste'molchilarini yozma ravishda xabardor qilgan paytdan boshlab besh ish kuni o'tgandan keyin qarzlarini qonun hujjalari uchun belgilangan tartibda iste'molchilarini ichimlik suv ta'minoti va suv chiqarish xizmati tarmoqlaridan uzb qo'yish yo'l bilan undirish choralarini ko'radi.
- Bunday hollarda yong'indan saqlanish va sanitariy holatlari uchun javobgarlik to'liq «Iste'molchi» zimmasiya yuklatiladi. Suv ta'minoti va oqova suv chiqarish tizimidan ilgari uzb qo'yilgan hollarda qayta ularshda «Iste'molchi»dan bazaviy hisoblash miqdorining 10 (o'n) barobari miqdorida to'lov qayta ularshni amalga osdirgan tashkilot hisobiga mablag'larini o'tkazish orqali undiriladi.
- 5.5. Oqova tizimiga kelib tushuvchi oqova suvining miqdori, ichimlik suv tarmog'idan yetkazib beriladigan ichimlik suv miqdoriga teng. Markazlashgan issiq suv ta'minoti mavjud bo'lgan hollarda, iste'mol qilinuvchi ichimlik suv miqdoriga oqova suv tarmoqlari xisobi uchun 20 koefitsiyenti qolnilanadi. «Iste'molchi»ning o'zida suv ta'minotining qurilmalari mavjud bo'sha, oqova suvlarning miqdori ushbu suv qurilmalarining mahsuldarligiga (ornatilgan va ro'yxatga olingan hisobiash priborlarining ko'rsatkichlariga) ko'paytiriladi. Ichki suv ta'minoti tizimi «Iste'molchi»ning shaxsiy avtonom manbasini bilan bog'liq bo'lmasligi lozim.
- 5.6. Ob'ekt egasi avtonom suv ta'minoti (quduq, ochiq suv olish havzasi, irrigatsiya tizimi)ga va (yoki) markaziy oqova hizimidan boshqa oqova tashlash manbalariga ega bo'lgan holatlarda «Ta'minotchi» tashkiloti bilan shartnomaga tuzish uchun maxsus tabiiy suv ob'ektlaridan maxsus suv olish yoki iste'mol qilish uchun ruxsatnomani qo'shimcha ravishda taqdim etishi zarur.
- 5.7. Suv ta'minotining xususiy avtonom manbai (artezian skvajinası, quduq, ochiq suv havzasi, irrigatsiya tizimi va boshqalar) mavjud bo'lganda oqova tizimiga oqova suvlarni oqizish uchun to'lovlar o'matilgan nasosning ishlab chiqarish quyvuti yoki o'matilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan hisoblash priborining ko'rsatkichlari asosida amalga osdiriladi. «Iste'molchi»ga qarashli bo'lgan avtonom suv ta'minoti manbaining ichki tizimi markaziy suv ta'minoti tizimi bilan tutashmagan bo'lishi shart.

VI. Aloxiда shartlar

- 6.1. Ob'ekt egasi o'zgarganda iste'molchi chiqib ketishidan 7 kun avval mayjud qarzlarini to'lab, bu haqda «Ta'minotchi» tashkiloti bilan dalolatnomaga imzolashi shart. «Iste'molchi» chiqib ketgach suvni hisobga olish pribori, plombalarning butligi va qoplanmagan debitor qarzdorlik uchun javobgarlik ob'ektning yangi egasi zimmasiya yuylanadi.

Электрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, Ҳужжат коди: FF74817425

6.2. Yetkazib berilgan yoki qabul qilingan ichimlik suvi xajmi quvurning o'tkazish qobiliyatidan kelib chiqib oyning kalendar kunlari hisobidan quydagি formula asosida hisoblanadi;

bunda: M – 0.60 ga teng bo'lgan zulfin orqali suv sarfi koefitsiyenti; F – suyuqlik oqib o'tadigan quvur yoki teshik kesimi maydoni (ichki diametr bo'yicha)m²; g – 9.81 m/sek ga teng bo'lgan erkin tushish tezligi; N – suvning metrlardagi bosimi; t – vaqt- 24 soat, sekundlarda.

Quyidagi holatlarda yuqoridaqgi formula asosida hisoblanadi:

6.2.1. «Iste'molchi»da suv o'lchash pribori va moslamalari yo'q bo'lgan holatlarda (yoki nosoz xolatda);

6.2.2. Suv o'lchash pribori yoki moslamasi «Ta'minotchi»da ro'yxatdan o'tmagani taqdirda;

6.2.3. Ichimlik suvi bilan o'zboshimchalik bilan foydalanganda;

6.2.4. Suv o'lchash pribori, moslamasi ishdan chiqqan, simgan, buzilgan holatda, sarflangan suv hajmi so'nggi tuzilgan dalolatnoma muddatidan yangi suv o'lchash pribori o'natalgan (ro'yhatdan o'tkazilan) kungacha hisoblanadi;

6.2.5. «Ta'minotchi»ning suv o'lchash bo'g'inni diametri kichikroq bo'lgan moslamaga almashtirish to'grisidagi talabnomasi qondirilagan va bajarilinagan holatlarda;

6.2.6. Suv o'lchash priborining hisob-kitobini olib borish bo'g'inidagi qo'yilgan himoya qoplamiga (plombaga) ruxsatsiz tegilish natijasida, ichimlik suv sarfini aniqlash imkoniyati chegaralanganda;

6.3. Ichimlik va oqova suv tizimlariga (jumladan yong'indan saqlanish gidrant va quvurlariga) o'zboshimchalik bilan ularni olingen va foydalangan holatlар aniqlanganda «Ta'minotchi» tomonidan dalolatnoma tuziladi va shu tuzilgan dalolatnoma o'zboshimchalik bilan ularni olgan shaxsning javobgarligi darajasini aniqlash va «Ta'minotchi»ga yetkazilgan zararni hisoblash uchun asos bol'lib xizmat qildi. Bunda:

- to'lov muddati, eng so'nggi tuzilgan dalolatnoma sanasidan o'zboshimchalik bilan ularni olingen kun sanasigacha yoki yangi suv o'lchash pribori o'natalilib, ro'yhatdan o'tkazilan kungacha yoki o'zboshimchalik bilan ularni uzib tashlangan kunga qadar hisobga olinadi;

- o'zboshimchalik bilan ularni olingen sanadan bu haqda ma'lumi bo'lgan sanagacha, agar «Ta'minotchi» balansdagi tarmoqlarga ularni sodir etilgan bo'lsa, bu muddat da'vo arizasi yozilgan muddatdan oshmasligi zarur. Agar o'zboshimchalik bilan ulangan sanai topish, aniqlash mumkin bo'lmasa, bu muddat da'vo muddatiga teng deb olinadi.

6.4. Texnik shartlar 2 yil muddatga beriladi. Belgilangan muddat tugagach buyurtmachi (objektini loyxaletsirish va qurishni boshlash uchun) loyiha muddatini cho'zdirishi yoki yangi texnik shartlarini olishi zarur.

Texnik shartlar mavjud bo'lмаган holda yoki muddati o'tgan holda, «Ta'minotchi» tomonidan suv uzatish xizmatlarini yakunlashga asos bo'ladi.

6.5. «Iste'molchi» ichimlik va oqova survi tarmoqlariga ularni haqidagi hujjatlari taqdim etmagan holatlarda «Ta'minotchi» tomonidan xokim qarori va kadastr hujjatlari hamda shu kabilalar asosida hujjat bilan tasdiqlangan ularni bo'yicha hisob-kitob qilishga haqlidir.

6.6. Ishlatilgan ichimlik suvi va qabul qilingan oqova suv uchun to'lovlari «Ta'minotchi» tomonidan taqdim etiladigan to'lov talabnomalari asosida ularga xizmat qiluvchi banklar orqali amalga oshiriladi. Bu to'lovlari «Iste'molchi» tomonidan 3 kunlik muddat ichida aktseptiz tartibda amalga oshiriladi. To'lovlari o'z vaqtida amalga oshirilagan taqdirda «Ta'minotchi» kechiktirilgan to'loving har bir kun uchun 0.4 foiz penya yozadi va uning umumti qlynnati asosiy to'loving 50%dan oshmasligi lozim.

6.7. Oqova tizimiga ruxsat etilmagan yong'ir va erkin qor suvlar oqizilayotgan, ishlab chiqarish oqova suvlarini «Iste'molchi»lar tomonidan tashlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevrali kunida qabul qilingan 11 sonli qarori bilan tasdiqlangan «Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalari» hamda ifloslantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining oqova tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun «Iste'molchi»larga belgilangan tarifga nisbatan 3 (uch) barobar ortiriluvchi koefitsient miqdor tartibida hisoblanadi.

6.8. Oqova survi chiqarib yuborishning hajmi va tarkibi bo'yicha me'yorlar bilan belgilangan oqizishning yo'l qo'yiladigan cheklangan miqdordan ortiqcha oqova suvlar va ifloslantiruvchi moddalarning chiqarish taqiqlanadi.

6.9. Ifloslantiruvchi moddalarning normativdan ortiqcha oqizganlik uchun kompensatsiya to'lovlarni hisoblab yozish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 11 oktyabrdagi "Tabiatni muhofaza qilishni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida"gi 820-soni qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

6.10. Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalari hamda ifloslantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining oqova tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun kompensatsiya to'lovlarni hisoblash tartibi asosida amalga oshiriladi, debitor qarzdorlik to'lanmagan taqdirda «Iste'molchi» oqova tarmoqlaridan uzib qo'yiladi.

6.11. Hisob-kitobning noto'g'ri qilinganligi (tarflanning noto'g'ri hisobiga olinganligi va shu kabi holatlari) to'grisida «Iste'molchi» yoziladigan e'tiroznomasi to'lov hujjati olingandan keyin 5 kun muddatda «Ta'minotchi»ga taqdim etilishi kerak. E'tiroznomasi «Iste'molchi»ni to'lov talabnomasi va xujjatida ko'rsatilgan summani to'liq va belgilangan muddatda to'lashdan ozod qilinadi.

VII. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Taraflar o'tasida shartnomasi yuzasidan kelib chiqqan nizolar, kelishuv yo'lli bilan hal qilinadi.

Agarda ikki tomonlama kelishuvga erishilsama, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchilikiga muvofiq yuridik «Iste'molchi» davlat ro'yxatidan o'tgan sud organlarida ko'rib chiqiladi.

7.2. Ushbu shartnomada belgilangan holatlari yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda Qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

VIII. Fors – major

8.1. Agar ushbu shartnomasi bo'yicha majburiyatlar qisinan yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalarini va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlari muzkur shartnomanining bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnomasi bo'yicha majburiyatlarini bajarish muddatini yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek, ushbu holatlari yuzaga keltingan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major xolati boshlangan muddatlarini ko'rsatgan holda yozma ravishda ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holatinining shartnomasi shartlarini bajarishga uch oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

IX. Shartnomanining amal qilish muddati

9.1 Ushbu shartnomasi ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikki tarafda bir nusxadan saqlanadi.

9.2 Shartnomasi g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yilning 31 dekabrigacha amal qiladi.

X. Taraflarning yuridik manzili:

«TA'MINOTCHI»

«ISTE'MOLCHI»

Surxon daryo viloyat "Suv ta'minoti" MChJ Qumqo'rg'on tuman bo'limi
Manzil: Surxon sohili mifly A.Temur ko'chasi 61-uy

Qumqo'rg'on tuman tibbiyot birlashma
Tel: 76-46-52-406, faks 76-46-52-406

Tel: +998 90 448 34, faks: 76-465-32-19

gazh-r 100022860222147073101054001

Bank: Ipoteka bank Surxon daryo vil filiali

Bank Markaziy bank Toshkent XKKM

Bank kod: 00014 STIR 200490114

Bank kod: 00014 STIR 200490114

Rahbar
M.O.

I.X.Xursanov
(F.I.O. imzo)

Shaxsiy h-r23402000300100001010

Bank Markaziy bank Toshkent XKKM

Bank kod: 00014 STIR 201122919

Moliya Vazirligi G'aznachilik

(g'aznachilik bo'linmasi nomi)

Rahbar
M.O.

R.X.Qo'yliyev
(F.I.O. imzo)



**YURIDIK AHAMIYTGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA
MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY EK\$PERTIZA XULOSASI**

27 yanvar 2021 yil

Qumqo'rg'on tumani

FF74817425

Istemolchi: “**Qumqo'rg'on tumani tibbiyat birlashmasi**” tomonidan ish yurutuvchi R.X.Qo'yliyev

Yetkazib beruvchi: «Surxondaryo suvta'minoti» MChJ direktori nomidan ish yurutuvchi I.Xursanov

Men, Surxondaryo viloyati Adliya boshqarmasi Qumqo'rg'on tumani yuridik xizmat ko'rsatish markazi Bosh yuriskonsulti S.Choriyev ichimlik suv va oqova suv iste'molchilarga yetkazib berish to'g'risidagi № 5-sonli shartnomma loyixasini O'zbekiston Respublikasi “Xo'jalik yurituvchl sub'ektlar faoliyatini shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'irisida”gi Qonunning

21 moddasiga va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining tegishli moddalari xamda boshqa normativ-huquqiy xujjatlar asosida yuqorida ko'rsatilgan korxonalar o'rtasida tuzilgan qurilish ta'mirlash shartnomasini huquqiy ekspertizadan o'tkazib qo'yidagilarni:

A N I Q L A D I M

1. Istemolchi: “**Qumqo'rg'on tumani tibbiyat birlashmasi**” haqiqatdan ham Davlat ro'yxatidan o'tgan, yuridik maqomga, shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarganligi uchun to'lov qobiliyatiga ega.

2. Yetkazib beruvchi: «**Surxondaryo suvta'minoti**» Davlat ro'yxatidan o'tgan, korxona rahbari shartnomani imzolash huquqiga ega.

3. Yetkazib beruvchi: «**Surxondaryo suvta'minoti**» MChJ bank hisob raqami mavjud.

4. Shartnomada ko'rsatilgan bandlar O'zbekiston Respublikasi “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'irisida”gi Qonuni va Fuqarolik kodeksining tegishli moddalari asosida tuzilgan.

5. Shartnomaning bajarish vaqtida shartnomaga o'zgartirishlar kiritiladigan bo'lsa 15 kun oldin tomonlarga ma'lum qilish tavsiya etiladi.

Yuqoridagilarga ko'ra tomonlar o'rtasida imzolanayotgan ichimlik suv va oqova suv iste'molchilarga yetkazib berish to'g'risidagi № 5-sonli shartnomma loyihasini imzolashlari mumkin deb hisoblayman.

**Qumqo'rg'on tumani yuridik xizmat ko'rsatish
markazi bosh yuriskonsulti:**



S.Choriyev

"TASDIQLAYMAN"



"O'zsuvtaminot" AJ
boshippfuv raisi o'rinnbosari

X.Raxmatullayev

" 12 2021 yil.

"KELISHILDI"

O'zbekiston Respublikasi
Monopoliyaga qarshi kurashish
qo'mitasj raisi o'rinnbosari
B.X.Ummatov

" 30 12 2021 yil.

III-guruh iste'molchilariga ichimlik va oqova
suvi xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha
SHARTNOMA

2022 y. "27" 01 1 -son

Qumqazgon shahri (tuman)
(shartnoma imzalangan joy)

Ushbu shartnomani "Surxondaryo suvto'minoti" MCHJ, keyingi
o'rnlarda "Ta'minotchi" deb yuritiluvchi, nizom asosida faoliyat yurituvchi
L. Kuzramov

(F.I.O.)

shaxsida bir tomondan, hamda keyingi o'rnlarda "Iste'molchi" deb yuritiluvchi
ta'biyat birlashma, nizom asosida
ish olib boruvchi foshliqi R.X.Qoyliyev
, ikkinchi tomondan quyidagilar hujida tuzulilar:

(F.H.O.)

I. Shartnoma predmeti

1.1. 2022 yil uchun suv yetkazish hajmi ushbu shartnomaga muvofiq III guruh
iste'molchisi (keyingi o'rnlarda "Iste'molchi" deb yuritiladi) uchun suv yetkazib berishi

3155

narx bo'yicha 1 — m³/ni:

1 m³ ichimlik suv uchun — so'm (+QQS 15%), + — so'm (maxsus
ustama xaqjni);

1 m³ oqova suv uchun — so'm (+QQS 15%), + — so'm (maxsus
ustama xaqjni) tashkil qilmoqda.

O'rtacha sutkalik ichimlik suv iste'moli limiti — m³.

Shu tariqa shartnomaning umumiyligi qiymati
so'mni tashkil qildi (summa yozuv bilan).

Iste'molchiga yetkazilgan suv va qabul qilingan oqova suvlari uchun hisob-kitoblar
Iste'molchi bilan avans to'lovlari tartibida, belgilangan muddatda to'liq hisob-kitob qilish
shart bilan yoki Ta'minotchi taqdim etadigan schot-fakturalar bo'yicha amalga oshiriladi.

1.2. Ta'minotchi Iste'molchini sifatli (O'zDSt 950:2011 davlat standartiga muvofiq)
ichimlik suvi bilan ta'minlash va Iste'molchidan oqova suvlarni qabul qilib olish
majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.3. Iste'molchi Ta'minotchiga, ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun to'lovlarni
keyingi oy uchun, agar hisobida yetarli miqdorda oldindan to'lovi mayjud bo'lmasa, ha
oyning 10 sanasigacha 70 foizlik oldindan haq to'lash tariqasida amalga oshirish
majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.4. Taraflar ushbu shartnomani ichimlik va oqova suv xizmatlari bo'yicha
shartlarini bajarish, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga, O'zbekiston
Respublikasi Vazirlar Muhkamasining 2014 yil 15 iyuldaggi 194-soni qarori bilan



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"SURXONDARYO VILOYATI TOZA HUDUD" Davlat unitar korxonasi

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyekting tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"SURXONDARYO VILOYATI TOZA HUDUD" DUK

(Yuridik shaxsning qisqartilgan nomi)

Tashkili etish (qayta tashkili etish, boshqa ro'yhaldan o'tqazish mallumollarini o'zgartirish)

09.06.2017

525035

ro'yhat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (soz bilan), yil)

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR): 304938403

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Davlat unitar korxonasi

Joylashgan joyi:

Surxandaryo viloyati, Termiz shahri, A.TEMUR KO'CHASI 69-UY

Guvohnoma:

Surxandaryo viloyati, Termiz shahri, YAGONA DARCHA
MARKAZI

tomonidan
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):

